

**“Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish”
Davlat xizmati reglamenti**

1. Xizmat tavsifi (pasport)

1.1 Xizmat nomi

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish

1.2. Xizmat natijasi

Fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik Sertifikati

1.3. Xizmatni ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

O'zbekiston Respublikasi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda - «Davavianazorat» inspeksiyasi)
Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi 73-b uy
Blankalarni «Davavianazorat» inspeksiyasining Havo kemalarining texnik ekspluatatsiyasi, tamirlanishi va ishlab chiqarilishini nazorat qilish bo'limi (HKETICHNB) yoki «Davavianazorat» inspeksiyasining www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan olish mumkin.

1.4. Huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Havo ko'deksining 30 moddasi.
2. “O'zbekiston Respublikasi parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 26 fevraldagi №90 sonli qarori.
3. “Tadbirkorlik sub'ektlarining fuqaro aviatsiyasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tishi tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari

1.6. Ijro muddati

Ariza olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida

1.7. Ariza qabul qilinganligini tasdiqlash muddati

Ariza olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish

2.2. Keng ko'lamda ma'lumot taqdim etish

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi tog'risidagi ma'lumotlar «Davavianazorat» inspeksiyasining www.uzcaa.uz saytidan amalga oshiriladi

2.2. So'rovga asosan beriladigan ma'lumotlar

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi tog'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish:

- og'zaki ravishda, ish kunlari soat 9-00 dan 18-00 gacha 120-00-62 yoki 120-00-63 sonli telefon raqamlari orqali;

- yozma ravishdagi xujjatlar so'rovnomalar asosida beriladi.

Yozma ravishdagi so'rovnomalarni qabul qilish:

- «Davavianazorat» inspeksiyasini devonxonasi ish kunlari soat 9-00 dan 18-00 gacha;

- kechay kunduz 254-14-82 yoki 255-53-37 sonli Faks raqamlari orqali;

- kechay kunduz caa@uzcaa.uz yoki technique@uzcaa.uz elektron pochta orqali.

2.3 Xizmat ko'rsatish manzili tog'risida ma'lumotlarni taqdim etish

«Davavianazorat» inspeksiyasining manzili:

100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi 73-b uy.

Mo'ljal – Mirobod bozori ro'parasida

2.4. Islatiladigan xujjatlar blankalari (shakllari)

Ariza va Sertifikat shakllari, «Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom»da belgilangan, Nizomning 2, 3, 4 va 5 ilovalari.

Ariza blankasini «Davavianazorat» inspeksiyasining HKETIchNBdan yoki «Davavianazorat» inspeksiyasi www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan, shuningdek mazkur reglamentning 2 ilovasidan olish mumkin.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

«Davavianazorat» inspeksiyasining ish vaqti: Soat 9:00 dan 18:00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari

3.2. Kutish shartlari

Kutish shartlari mavjud emas

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Zarur bo'lgan xujjatlar

Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish uchun ariza;
«Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom»ning V bo'limida ko'rsatilgan asoslovchi xujjatlar ro'yxati ilova qilinadi

4.2. Talabnomani ko'rib chiqish uchun to'lov

Arizani ko'rib chiqish bepul

4.3 Davlat xizmatlari ko'rsatish bosqichlari

«Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi tog'risidagi Nizom»da quyidagi bosqichlar belgilangan:

- arizani qabul qilish va uni ro'yxatdan o'tkazish;
- arizani dastlabgi baholash va ariza rad qilinganda ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;
- asoslovchi xujjatlarni ekrpertiza qilish va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;
- ariza beruvchidan aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida xujjatlarni qabul qilib olish;
- uchishga yaroqliligini tekshirish;
- fuqaro havo kemasini uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish (rad etish)

4.4. Davlat xizmati ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

«Davavianazorat» inspeksiyasi devonxonasi tomonidan arizani qabul qilib olish;
Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasi boshlig'iga ko'rsatma yozish uchun topshirish;

Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasining HKETICHNBga topshirish;

«Davavianazorat» inspeksiyasining HKETICHNBda arizani «Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizom» talablariga asosan ko'rib chiqish;

Ariza beruvchiga Sertifikat berish rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabar berish yoki Sertifikat berish

4.5. Xizmat ko'rsatilishini rad etish asoslari

Ariza beruvchiga quyidagi holatlarda Fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berish rad etilishi mumkin:

fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik Sertifikatini berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarning ariza beruvchi tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

ariza beruvchi ruxsat berishga doir talablar va shartlarga muvofiq emasligi;

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

havo kemasinining uchishga yaroqlilik holatini tekshirishda salbiy xulosa olinganligi.


Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishni boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish

Ariza beruvchi Sertifikat berish rad etilishi to'g'risidagi qarori, shuningdek «Davavianazorat» inspeksiyasi mansabdor shaxsining xatti-xarakati (xarakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

Davlat xizmati ko'rsatish sxemasi



Parvozlarga yaroqlilik sertifikatini berish to'g'risida

ARIZA

Parvozlarga yaroqlilik standart (eksport) sertifikatini berishingizni so'rayman

Muddati ___gacha / сроком до _____
(sana, oy, yil)

Arizaning sababi

(HK ekspluatatsiyasi boshlanish, sertifikatning amal qilish muddati va xakozolar)

1. Havo kemasi to'g'risida ma'lumotlar:

Havo kemasining turi (keyinchalik-HK) Тип воздушного судна (далее - ВС)			
Davlat va ro'yxat belgisi Государственный и регистрационный знаки			
Seriya (zavod) raqami Серийный (заводской) номер			
Ishlab chiqarilgan joyi va sanasi Место и дата изготовления			
Dvigatelning / Havo parraglarining turi Тип двигателей / воздушных винтов			
HK kategoriyasi va/yoki qo'llanilishi Категория ВС и/или применение			
Ta'mirlashlarning soni va oxirgi ta'mirlash sanasi Количество ремонтов, место и дата последнего ремонта			
HK bazirovka (arenda) joyi			

Место базирования (аренды) ВС			
----------------------------------	--	--	--

2. Dvigatellari to'g'risida ma'lumotlar / Сведения о двигателях:

Dvigatelning tartib raqami Порядковый номер двигателя	1-chisi / 1-й	2-chisi / 2-й	3-chisi / 3-й	4-chisi / 4-й
Zavod raqami Заводской номер				
Ishlab chiqarilgan sanasi Дата изготовления				
Ta'mirlashlarning soni va oxirgi ta'mirlash joyi Кол-во ремонтов, место и дата последнего ремонта				
Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati Назначенный ресурс и срок службы (с учетом продлений)				
Ta'mirlashlararo resursi va xizmat qilish muddati (uza ytirishlarni hisobga olganda) Межремонтный ресурс и срок службы (с учетом продлений)				
EQB ishlagani Наработка ЧЭ (soat /sickl/ час/циклы)				
OTK ishlagani Наработка ППР (soat /sickl/ час/циклы)				

3. Havo parraglari to'g'risida ma'lumotlar

Havo parraglarining tartib raqami Порядковый номер воздушного винта	1-chisi / 1-й	2-chisi / 2-й	3-chisi / 3-й	4-chisi / 4-й
Zavod raqami Заводской номер				
Ishlab chiqarilgan sanasi Дата изготовления				
Ta'mirlashlarning soni va oxirgi ta'mirlash joyi Кол-во ремонтов, место и дата последнего ремонта				
Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati				

(uzaytirishlarni hisobga olganda) Назначенный ресурс и срок службы (с учетом продлений)				
Ta'mirlashlararo resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olganda) Межремонтный ресурс и срок службы (с учетом продлений)				
EQB ishlagani Наработка СНЭ (час)				
OTK ishlagani Наработка ППП (час)				

4. Havo kemasi ko'zdan kechirildi, formulayar va pasportlar, buyumlarning qisqartirilgan resurs holati tekshirildi

(kamchiliklar yo'q, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi)

5. Parvozlarga yaroqlilik boyicha barcha bajarilishi shart bo'lgan byulletenlar va ko'rsatmalar, ariza berish kuniga qadar bajarilgan, havo kemasi komplektni qo'yilgan, reglamentda ko'rsatilgan texnik ko'rsatish ishlari bajarilgan.

6. Havo kemasi ekpluatatsiya uchun / bazirovka joyigacha uchib boorish uchun yaroqli

7. Arizada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar ishonchli.

Arizachi

(lavozimi /должность)

(imzosi, I.Sh. /подпись. ФИО)

«__» _____ 20 у.г.
(sana) (oy/)

M.O'./ M.II. (yuridik shaxs uchun /)

8. Parvozlarga yaroqlilik Sertifikatini berish (bermash) to'g'risida Davavianazorat mutaxassisining hulosasi

(lavozimi)

«__» _____ 20 г.
(sana) (oy) (imzosi, I.Sh)